



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-126-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tumanda 2023-yil uchun eksport prognoz ko'rsatkich rejalari ularni bajarilishi, mahalliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar jalb qilish hamda investitsiya loyihalari bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida

2022-yil 12-dekabrda Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining 101-sonli yig'ilish bayoniga asosan Angor tumanidan 2023-2024-yillar davomida umumiy qiymati 558,2 mlrd so'mga teng bo'lgan jami 43 ta hududiy investitsiya loyihalar amalga oshirilishi natijasida 865 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Shundan, 2023-yilda qiymati 387,7 mlrd so'mlik 40 ta sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi loyihalarini amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, mazkur loyihalarni ishga tushirish natijasida 720 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan.

Jumladan, sanoat yo'nalishi bo'yicha qiymati 205,5 mlrd so'mlik jami 17 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 435 ta yangi ish o'rinlari, qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha qiymati 66,9 mlrd so'mga teng jami 8 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 56 ta yangi ish o'rinlari hamda xizmat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha umumiy qiymati 116,3 mlrd so'mga teng jami 15 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 229 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

2023-yil yanvar-may oylari yakuni bilan qiymati 6,5 mlrd so'mlik 8 ta investitsiya loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lib, natijada 42 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan. Amalda 2023-yilning 31-may holati bilan qo'shimcha loyihalar ishga tushirish evaziga qiymati 31,6 mlrd so'mlik 12 ta loyiha ishga tushirildi hamda 112 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi.

Jumladan, "Sariosiyo Dizel" MChJ tomonidan qiymati 8,4 mlrd so'mlik Ko'p qavatli uy-joy qurishni tashkil etildi. Bunda tashabbuskor o'z mablag'i hisobidan 7,9 mlrd so'm hamda 550,0 mln so'm tijorat bank kredit mablag'lari hisobiga amalga oshirilib 15 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

“Zamin Angor Klaster” MChJ tomonidan qiymati 14,0 mlrd so‘mlik Qishloq xo‘jaligi texnikalari xizmatini tashkil etish loyihasi amalga oshirildi. Loyiha amalga oshirilishi natijasida jamiyatga 40 ta qishloq xo‘jaligi texnikalari hamda 40 dona agregatlar olib kelindi. Loyihani amalga oshirilishi natijasida qo‘shimcha 40 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Angor tumanida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459-sonli qaroriga asosan tumanda 2023-yilda 1 ta (“Zamin Angor Klaster” MChJ tomonidan ingichka tolali paxtani qayta ishlash) loyiha doirasida 4,5 mln AQSh dollar miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan tizimli vazifalardan kelib chiqib, har bir tuman 2023-yil yakuniga qadar barcha imkoniyatlarni hisobga olib, shakllantirilgan takliflarga asosan 50,0 mln dollarlik xususiy investitsiyalar o‘zlashtirish topshirig‘i berilgan bo‘lib, ushbu topshiriqqa asosan tumanda faoliyat olib borayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar tanlanib sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha qiymati 52,0 mln dollarlik 7 ta loyihalar shakllantirilib olindi.

Jumladan, “Tanovar Surxan” MChJ XK tomonidan 10,0 mln AQSh dollar, “Angor Fresh” MChJ XK tomonidan 10,0 mln AQSh dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mablag‘lari o‘zlashtirish rejalashtirildi.

Angor tumanida 2023-yil uchun jami 18,7 mln. AQSh dollar eksport prognoz rejasi belgilangan bo‘lib, shundan sanoat mahsulotlari 7,5 mln. AQSh dollar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 11,2 mln AQSh dollarni tashkil qiladi. 2023-yilning yanvar-mart oylari davomidagi tumanga 2,8 mln AQSh dollar eksport rejasi qaror bo‘yicha rejalashtirilgan bo‘lsa, 31-mart holati bilan belgilangan eksport rejasi 2,3 mln AQSh dollarga bajarilib, xorij davlatlariga sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulot eksport qilindi hamda reja 82,0 foizga bajarildi.

Angor tumanda 2023-yilda 1 ta KSZ hamda 1 ta YoSZ tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shundan, “Yangi turmush” mahallasi hududidan 2 gektar yer maydoni tanlab olinib 17 ta lotga ajratildi hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari tashkil etish rejasi bo‘yicha barcha belgilangan lotlar auksion savdolariga chiqarib sotilgan. Mazkur sanoat zonasida hozirgi kunda qiymati 11,8 mlrd so‘mlik 8 ta tekstil to‘qimachilik, qurilish materiallari va mebel sanoati sohasida faoliyat olib boruvchi korxonalar loyihalari amalga oshirilishi natijasida 56 ta yangi ish o‘rinlari yaratilish belgilangan.

Yoshlar sanoati va tadbirkorligi zonasiga tumanning “Sharq guli” mahallasi

hududidan 1,4 ga yer maydoni ajratilib, 30 ta lotlar tadbirkorlik subyektlariga joylashtirildi. Yoshlar sanoati va tadbirkorligi zonasi hududidagi qiymati 19,0 mlrd.so‘mlik loyihalar joylashtirilgan bo‘lib, loyihalarni amalga oshirilishi natijasida 191 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Angor tumanida investitsiyalar jalb qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda eksport hajmlarining ijrosi va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i D.Allanazarovning hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida investitsiyalar jalb qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda eksport hajmlarining ijrosi va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i D.Allanazarovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (D.Allanazarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov) hamda tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli hamda 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-sonli qarorlariga asosan 2023-yilda tumanning investitsiya salohiyatini yanada oshirish, barqaror sur‘atlarda investitsiyalarni o‘zlashtirish hamda investitsion loyihalarni samaradorligini oshirish borasida tegishli chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirish;

- tuman investitsiya salohiyatini istiqbolli hududiy investitsion loyihalar hisobiga yanada kengaytirish hamda muntazam ravishda yangi loyihalarni jalb qilish bo‘yicha zaruriy choralarni belgilash;

- investitsiya loyihalarini samaradorligini oshirish va rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ulardan maqsadli foydalanish, ushbu maqsadlarni manfaatdor davlat idoralari bilan ijtimoiy sherikchilikni yo‘lga qo‘yishni tizimli davom ettirish;

- tumanda amalga oshirilishi rejalashtirilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar negizida tashkil etilayotgan korxonalarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy dasturning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha to‘liq bajarilishini ta‘minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va nazoratga olish;

- tumanda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini yanada

- oshirish choralarini ko‘rish, hududiy dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish hamda tasdiqlangan ko‘rsatkichlarning bajarilishini doimiy nazoratga olish;
- tumanda hududiy va xorijiy investitsiya loyihalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan doimiy ravishda tizimli monitoring va nazoratni olib borishni tashkil qilish;
 - tumandagi kichik sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish, ushbu zonada yangi investitsiya loyihalarini ko‘proq jalb etish, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirilishini qo‘llab quvvatlash;
 - tumanda sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishini tashkil etish;
 - tuman eksport salohiyatini oshirish, eksportyor korxonalarining amaldagi rejalarini bajarish holatini doimiy monitoring qilib borish hamda tuman eksport rejasini belgilangan muddatlarda bajarib borish choralarini ko‘rish;
 - tumanda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash, shu asosda yuqori daromadli yangi ish o‘rinlarini yaratish choralarini ko‘rish;
 - tumanning, ayniqsa, sanoati past darajada rivojlangan mahalla fuqarolar yig‘inlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;
 - dasturlarga kiritilgan istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish yuzasidan loyiha tashabbuskorlariga har tomonlama ko‘maklashish, keyinchalik ularni amalga oshirish uchun salohiyatli mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish choralarini ko‘rish;
 - hududiy va xorijiy investitsiya loyihalarining so‘zsiz, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan doimiy va tizimli monitoring hamda nazoratni tashkil qilish;
 - tuman eksport salohiyatini oshirish, eksportyor korxonalarining amaldagi rejalarini bajarilish holatini doimiy monitoring qilib borish, yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarini eksportga yo‘naltirishga ko‘maklashish, korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda davlat tomonidan belgilangan tartibda rag‘batlantirish mexanizmlaridan to‘liq foydalanish hamda tuman eksport rejasini belgilangan muddatlarda bajarish choralarini ko‘rish;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 134-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid

tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5088-sonli qarorlari talablariga qat’iy rioya etgan holda, yangi tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalarini bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirib borilishi yuzasidan belgilangan muddatlarda shtab tashkil qilish va muhokama qilib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (O.Muratov, B.Hakimov, J.Po‘latov, U.Raxmatov), tuman statistika bo‘limi (A.Xudoyorov) hamda tegishli mutasaddilar bilan birgalikda:

- loyiha tashabbuskorlari mazkur ishga tushirilgan investitsiya loyihalarning ishga tushganlik haqidagi belgilangan tartibda dalolatnomalarni rasmiylashtirib, davlat statistika organiga o‘z muddatlarda taqdim etilishini ta‘minlash choralari ko‘rish;

- 2023-yilda mo‘ljallangan investitsiya loyihalari va eksport prognoz ko‘rsatkichlarining belgilangan muddatlarda orttirib bajarilishini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

4. Tumandagi tegishli tijorat banklariga tumanni 2023-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida narazda tutilgan loyihalarning tasdiqlangan tarmoq jadvallariga muvofiq moliyalashtirilishi lozim bo‘lgan loyihalarga qonunchilikda belgilangan tartibda kredit mablag‘lari ajratilishini ta‘minlash tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga o‘zlari saylangan saylov okruglari hududlarida tumanda investitsiya loyihalarini keng jalb qilish hamda eksport salohiyatini oshirish va kichik sanoat zonalarida olib borilayotgan ishlarning mazmunmohiyatini aholiga yetkazish hamda ushbu hududda amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarni deputatlik nazoratiga olish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har oyning 5 sanasiga qadar xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma ma‘lumot kiritib borsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog‘dusi” tuman gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga tuman hokimining o‘rinbosari (D.Allanazarov) bilan birgalikda tumanda investitsiya loyihalarini keng jalb qilish hamda eksport salohiyatini oshirish va sanoat zonalarida keng ko‘lamli amalga oshirilgan ishlar borasida videoroliklarni tayyorlab, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov